

**KIBERMAKONDAGI MAXFIYLIK VA MA`LUMOTLARNI HIMOYA
QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA TARTIBGA SOLINISHI**

Sulaymonova Roziyabonu

Toshkent davlat yuridik universiteti XHQH fakulteti 2-kurs talabasi

sulaymonovaroziyabonu@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi axborot texnologiyalari rivojlangan asrda maxfiylik va ma`lumotlarni himoya qilish masalalari va ularning juda muhim va dolzarb mavzu ekanligi muhokamasi. Shuningdek maxfiylik tushunchasi, maxfiylik huquqlari va uning himoya qilishi. Maxfiylik ma`lumotlarini himoya qiluvchi milliy va xalqaro qonun hujjatlari tahlili. Ma`lumotlarni himoya qilish usullari va uning buzilishini oldini olishga qaratilgan davlatlar amaliyotidan misollar tahlili. Shuningdek ma`lumotlar subyektlarining huquqlari va uni tartibga solishga qaratilgan hujjatlar. Kibermakondagi ma`lumotlarni himoya qilish, uning buzilishi va u buzilgan taqdirda amalga oshirilishi kerak bo`lgan bir qancha harakatlar tahlili. Ma`lumotlarni himoya qilishda amalga oshirilishi kerak bo`lgan zarur chora tadbirlar. Shuningdek qonunchilikka taklif va tavsiyalar.

Kirish so`zlar: maxfiylik, ma`lumotlarni himoya qilish, ma`lumotlarni himoya qilishga qaratilgan milliy va xalqaro hujjatlар, ijtimoiy tarmoqlar

Kirish

Avvalo bugungi raqamli texnologiyalar rivojlangan asrda maxfiylik bu juda ham dolzarb muommo bo`lib kelmoqda. Shu sababli maxfiylik tushunchasi o`zi nima ekanligi haqida tahlil qilishdan boshlasak maqsadga muvofiq bo`ladi. Maxfiylik bu shaxsiy ma`lumotlarini har qanday shaxslardan va har qanday tashkilotdan ya`ni kim yoki nima bo`lishidan qat`i nazar himoya qilish hisoblanadi.

Maxfiylik shaxsning shaxsiy ma`lumotlariga kirishni nazorat qilish, ularni to`plash va himoya qilish hisoblanadi. Kibermakonda shaxsiy daxlsizlik shaxsiy ma`lumotlarini himoya qilish, maxfiylikni saqlash va onlayn faoliyatini nazorat qilish qobiliyatini o`z ichiga oladi. (G`ulomov va boshqalar,, 2022). Maxfiylik tushunchasi haqida yana shuni aytish kerakki, maxfiylik bu shaxsning shaxsiy huquqlari kabi bir xil tushuncha. U ma`lumotlarni har qanday olinishidan himoya qilish, shaxsiy telefonimi yoki nima bo`lishidan qat`i nazar uni himoya qilish tushuniladi.

Maxfiylikni oshirish uchun qanday ishlar amalga oshirilmoqda va qanday qilib uni kuchaytirish mumkin ?

Bugungi kunda internet tarmoqlarida online savdo qilish yoki ma`lumotlarni uzatish, qabul qilish yoki umuman olganda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish ko`payib

bormoqda. ¹Shu sababli ma`lumotlarni elektron pochta orqali uzatishda rasmlarni ochganda avtomatik tarzda yuklab olishdan voz kechilmoqda. Chunki elektron pochta xabarini yuborgan shaxs sizning barcha ma`lumotlaringizni bilib olishi mumkin. Sizning IP manzilingiz va taxminiy geografik joylashuvningiz kabi ma`lumotlarni ham osongina bilib olishi mumkin. Lekin Google 2014-yilda elektron pochtada rasm yuklashni olib qo`ydi. Lekin elektron pochtadan rasmlarni avtomatik ravishda yuklash yoki yuklamaslikni o`chirib qo`yishingiz kerak. Bundan tashqari biz qandaydir dastur ochganimizda u biz haqimizdagи barcha ma`lumotlarni to`ldirish kerakligi haqida so`raydi. Bu qanchalik to`g`ri bo`lishi mumkin. Chunki u bizning shaxsiy ma`lumotlarimiz hisoblanadi. Agar o`sha olingan dastur qandaydir jinoiy to`da a`zolari tomonidan jinoiy maqsadda ochilgan bo`lsachi. Shu sababli o`sha programmalar egalari shaxslarning shaxsiy ma`lumotlarini himoya qilishini o`zi nazorat qilishini ularni har qanday buzilishidan oldini olishi haqida gapirib o`tishgan. Ammo bizning maxfiy ma`lumotlarimiz tarqalib ketgan taqdirda nima bo`lishi mumkin? Ular shaxsiy ma`lumotlardan turli maqsadlarda foydalanishlari mumkin. Deylik kredit olishlari mumkin. Chunki ba`zi dasturlarda biz o`zimiz haqimizdagи ma`lumotlarni to`liq kiritamiz. Dastur asoschilari ma`lumotlarni himoya qilishga doir juda katta ishlarni amalga oshirishi kerak. Bundan tashqari ba`zi dasturlar ham bizning maxfiy ma`lumotlarimizni kiritishni cheklab qo`yish lozim.

Shaxsiy ma`lumotlarimizni kiritganda ularni qanday himoya qilishimiz kerak? Yuqorida dastur asoschilari o`zları yaratgan dasturlari yoki boshqa narsalarni himoya qilishi kerak deb o`tdik. Bunda ijtimoiy tarmoq hisoblangan telegram haqida aytib o`tsak maqsadga muvofiq bo`ladi. Telegram ijtimoiy tarmoqda ham bizning shaxsiy ma`lumotlarimiz va shaxsiy yozishmalarimiz mavjud. Ularni himoya qilish uchun telegram asoschisi kim telegramni buza olsa mukofot elon qilib, undagi kamchiliklarni tuzatdi. Ammo telegram ijtimoiy tarmog`ida biz telegramni ulab qo`yish qismini yopib qo`yishimiz kerak deb o`ylayman. To`g`ri bu ko`pchilik uchun foydali bo`lishi mumkin. Ammo undagi shaxsiy yozishmalarimiz kimdir uchun juda kerak bo`lishi mumkin. Shu sababli telegramdagi ulab qo`yish qismini o`chirib qo`yish kerak. Bu qanday bo`lishi mumkin? Telegramda ham elektron pochtadagi kabi rasmlarni avtomatik yuklab olish qismini xohishiy o`chirib qo`yish orqali, telegramni ham ulashni o`chirib qo`yish lozim. To`g`ri telegramni ulab qo`yish ham bu xohishiy, ammo telefonimiz kimningdir qo`lida bo`lgan taqdirda u bizning telefonimizga kelgan xabar orqali telegramni ulab olishi mumkin. Bundan tashqari buni homoya qilishning yana bir usulini qo`llash mumkin. Ya`ni telegramga kelgan xabar orqali emas, buni boshqacha yo`l bilan himoya qilish kerak. Deylik biz shaxsiy ma`lumotlarimizni

¹ Maxfiylikni oshirish va tezroq yuklash uchun Gmail -da rasmni avtomatik yuklashni qanday o`chirish mumkin
<https://www.tazkranet.com/uz/how-to-turn-off-gmails-automatic-image-loading-for-increased-privacy-and-speedier-loading/>

kiritib ochsak, bu bir tarafdan ishonchli bo`lishi mumkin. Ya`ni telegramni ulab qo`yishda biz shaxsiy ma`lumotlarimizni kiritamiz va uni avvalgisiga ulab qo`yish imkonini beradigan qilib. Aytmoqchimanki ikki bosqichli tekshiruv orqali emas, balki pasportimizdagi ma`lumotlarni kiritish orqali. Faqatgnina telegram emas boshqa ijtimoiy tarmoqlarda ham bu muommo mayjud. Ularni kiberhujumkardan asrash uchun yanada kuchli himoya qilish ishlarini amalga oshirish lozim. Yuqoridagilar nima uchun muhim deb o`ylashimiz mumkin?

Yuqorida sanab o`tilganlarning barchasi maxfiylikni himoya qilishga oid tavsiyalar va bajarilgan ishlar. Agarda maxfiy ma`lumotlarimiz boshqa shaxslarga tushib qolsa, bu biz uchun juda og`ir oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Bundan tashqari bugungi kunda internet orqali bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Shunin uchun bizning ma`lumotlarimizni himoya qilish bilan bog`liq muommolar ko`paymoqda.

Asosiy qism

Ma`lumotlar maxfiyligi haqida va unga ruxsatsiz kirish jinoyat ekanligi haqida ma`lumotga ega bo`ldik. Shuningdek ma`lumotlarga ruxsatsiz kirishning oldini olish ma`lumotlar maxfiyligini talab qiladi. Bu ma`lumotlarni himoya qilish uchun ishlab chiqilgan qonunlar orqali himoya qilinadi. Bu qonunlar hamma davlatlarda har xil bo`lishi mumkin, barchasining maqsadi maxfiylikni oshirish, ma`lumotlarni kiberhujumlardan asrash hisoblanadi. Bundan tashqari davlatlarda qonunlar turlicha bo`lgan taqdirda ham, ular bir xil asosiy tamoyillarga amal qilishadi.

- ²Ma`lumotlaradolatli va qonuniy ravishda qayta ishlanishi kerak
- Ma`lumotlar yetarlicha, tegishli va ortiqcha bo`lmasligi kerak
- Ma`lumotlar aniq bo`lishi kerak
- Ma`lumotlar xavfsiz saqlanishi kerak
- Ma`lumotlar kerak bo`lganidan ko`proq vaqt saqlanmasligi kerak
- Ma`lumotlar boshqa davlatga o`tkazilmasligi kerak

Davlatlar yuqoridagi tamoyillarga amal qilgan holda maxfiylikni ta`minlash va ma`lumotlarni himoya qiladi. Raqamlı asrda maxfiylik va ma`lumotlar xavfsizligi kabi muommolar ro`y bermoqda. Onlayn platformalar, ijtimoiy tarmoqlar, elektron tijorat va internet qurilmalaridan foydalanishda jismoniy shaxslarning aniq rozilik bermasdan shaxsiy ma`lumotlar yig`iladi. Bundan tashqari shaxsga doir ma`lumotlar to`g`risidagi O`RQ-547-sonda ma`lumotlar haqida va uning himoyasi haqida ham berilgan.³ Shaxsga doir ma`lumotlar- muayyan jismoniy shaxsga taalluqli bo`lgan va

² Ma'lumotlar maxfiyligi - Vikipediya
https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Ma%27lumotlar_maxfiyligi

³ O'RQ-547-coh 02.07.2019. Shaxsga doir ma`lumotlar to`g`risida
<https://lex.uz/docs/-4396419?ONDATE2=21.04.2021&action=compare>

uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan va u qayd etiladigan axborot. Ushbu atamada jismoniy shaxslarning deb berilgan va ularning ma`lumotlarini himoya qiladigan hujjat sanaladi. Chunki yuridik shaxsning ma`lumotlari ochiq holatda bo`ladi. Shu sababli yuridik shaxsdan tashqari deb yozilsa ham yaxshi bo`lardi. Bu endi o`rganayotgan insonlarga foyadali bo`ladi deb o`ylayman. Ushbu qonunda shaxsga doir ma`lumotlarni himoya qiluvchi davlat organlari, shaxsga doir ma`lumotlarning maxfiylici va hamma foydalanishi mumkin bo`lgan shaxsga doir ma`lumotlar ham mavjud. Umuman olganda shaxsga doir ma`lumotlar va uni himoya qilishga qaratilgan qonun hisoblanadi.

Maxfiylikni himoya qilish uchun davlatlar turli xildagi qonunlar ishlab chiqmoqda. Amerika Qo`shma Shtatlaridagi Kaliforniya istemolchilarining maxfiylici to`g`risidagi qonun shulardan bittasi hisoblanadi. Bu kabi qonunlar shaxsiy hayotimizni himoya qilish va shaxslarga vakolat beradigan huquqiy mexanizmlarni yaratadi. Shuningdek maxfiylik haqida olimlarning ham qarashlari mavjud. Samuel Uorren va Lui Brandeys “Maxfiylik huquqi” kitobida yangi texnologiyalar rivojlanayotgani va unga javoban shaxsiy daxlsizlik huquqini ham tan olishlarini aytishadi. Maxfiylik huquqi buzilganda shaxsiy daxlsizlik huquqi ham buzilishi haqida aytishadi. O`zbekiston konstitutsiyasining 31-moddasida ham maxfiylik va shaxsiy daxlsizlik haqida so`z boradi. Unga ko`ra har kimning shaxsiy yozishmalari, telefon orqali so`zlashuvlari yoki pochta orqali xabarlari sir saqlansishi kerakligi haqida aytilgan. Biz bu sir saqlanshni qanday amalga oshirishimiz mumkin? Shaxsiy hayot sirining boshqa birovga ham ma`lum bo`lishi va uning tahdidini oldini olish choralarini qanday amalga oshirish mumkin? Bu borada aholiga ham tushuntirishlar berib, ularga ma`lumotlarini qanday qilib himoya qilish, boshqa shaxslarga bermaslik haqida xabardor qilib turish kerak. Shuningdek Amerika Qo`shma Shtatlarida muayyan turdagи sohalar uchun maxfiylik va ma`lumotlarni himoya qilish uchun qonunlar ishlab chiqilgan. Misol uchun, Sog`liqni saqlash sug`urtasi portativligi va javobgarligi to`g`risidagi qonun bo`lishi mumkin. U sog`liq bilan bog`liq muommolarning sir saqlansishi haqida va maxfiyligini himoya qiladi. Shunga o`xshash Gramm-Leach-Billey qonuni(GLBA) istemolchilarining moliyaviy ma`lumotlarining maxfiylici va sir saqlansishi va xavfsizligi haqidagi qonun ham mavjud. (Federal Savdo Komissiyasi, sanasi yo`q). Shuningdek shtatlar ham o`zlarining ma`lumotlarini himoya qilish uchun qonunlar ishlab chiqishgan. Kaliforniya istemolchilarining ma`lumotlarini himoya qilish to`g`risidagi qonun. U kabi qonunlar shaxslarga shaxsiy ma`lumotlarini himoya qilishda yordam beradi. Bu har bir sohada alohida qonunlar qabul qilish maxfiylik huquqining qanday muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Shaxsiy daxlsizlik huquqi haqida Fuqoroviy va siyosiy huquqlar to`g`risidagi paktda ham keltirilgan. Unga ko`ra hech kimning shaxsiy yozishmalariga, oilaviy hayotiga

o`zboshimchalik bilan noqonuniy aralashish mumkin emasligi berilgan. Bundan tashqari bu kabi ma`lumotlardan foydalangan holda uning sha`ni va or-nomusiga tajovuz qilinishi mumkin emas.


Natija

Shaxsga doir ma`lumotlar himoyasini kuchaytirish haqida va ularni tarqalishini oldini olish haqida fikr yurittik. Bugungi kunda internetdan foydalanish oshib borayotganligi sababli, u bilan ishlarni oson hal qilish mumkin. Ayniqsa internetdan foydalanish va uni tushunish korona virusi tarqalib, karantin holati elon qilinganda juda kuchayib ketgandi. Ishlarni onlayn bajarish, onlayn do`konlardan tovarlarni xarid qilish juda kuchaygan. Lekin biz onlayn do`konlardan xarid qilishimiz uchun o`zimizning shaxsiy ma`lumotlarimizni kiritishimiz kerak bo`ladi. Shu holatni o`zgartirish kerak deb o`ylayman.



Yuqoridagi rasmga ko`ra ma`lumotlar buzilishining 44% mijozlarning ismlari, elektron pochta manzillari va parollarini o`z ichiga oladi. Bu oxirgi bir yillikdagi ma`lumot ekan. Demak xaridorlar o`zlarining ma`lumotlarini kiritishda ehtiyyotkorlikka ega bo`lishlari kerak. AQSH internet foydalanuvchilarining 90% onlayn maxfiylik muhimligiga rozi. Bu statistiklar shuni ko`rsatadiki, maxfiylik bu juda muhim. Bundan tashqari biz ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda shaxsiy ma`lumotlarimizni kiritamiz. Ammo ishlatayotgan ijtimoiy tarmoqlarimiz ham kiber hujumlarga uchrashi mumkin. Uning oldini olish uchun kuchli himoya tizimini ishlab chiqish kerak. Shuningdek ijtimoiy tarmoqlarga kirishda oson bo`lgan parollarni emas, balki juda ham murakkab bo`lgan parollarni kiritish kerak. Telegram, Instagram, Facebook kabi ijtimoiy tarmoqlar orqali har xil turdagilarga linklarga kirish orqali bizning barcha ma`lumotlarimizdan xabardor bo`lishadi. Ular yaxshi ijtimoiy tarmoq bo`lishiga qaramasdan, bizning shaxsiy ma`lumotla rimiz kiritiladi.

Only 18% of US social media users feel that Facebook protects their data and privacy



Yuqoridagi rasmga asosan: Amerika Qo`shma Shtatlari ijtimoiy tarmoqlaridan foydalanuvchilarning atigi 18% Facebook o`z ma`lumotlarini va maxfiyligini himoya qiladi deb o`yaydi. Ammo faqatgina 18% odam xolos. Qolganlar esa bu fikrga qarshi chiqishadi. Ijtimoiy tarmoqlar shaxsiy ma`lumotlarimizni himoya qilish uchun yanada kuchli choralarни amalga oshirishi kerak. Shuningdek ma`lumotlar to`liq kiritiladigan dasturlardan saqlanish kerak. Shaxsga doir ma`lumotlar to`g`risidagi qonunda shaxsga doir ma`lumotlar maxfiyligi haqida ham berilgan bo`lib, unda shaxsning roziligidiz yoki qonuniy asos mavjud bo`lmaganda, ma`lumotlarni oshkor qilish, tarqatish ham mumkin emas. Bundan tashqari sud ishlari ham shaxsiy daxlszilikni rivojlantirishda muhim rol o`ynaydi. Masalan, Amerika Qo`shma Shtatlari o`z qarorida Carpenter Amerika Qo`shma Shtatlariga qarshi, jismoniy shaxslar o`z mobil telefonlarining joylashuvi haqida shaxsiy daxlszilikni ta`minlashi kerak va order mavjud bo`lmasa ma`lumotga kirib bo`lmaydi deyishgan. Shuningdek Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va Taraqqiyot Konferensiyasi rasmiy veb saytida shaxsiy ma`lumotlarni himoya qilishga doir qonunlar ishlab chiqqan va bu ustida ishlar amalga oshirayotgan davlatlar ro`yxatini ishkab chiqdi. Unga ko`ra ⁴2021-yil bo`yicha, 194 ta davlatdan 128 tasida ma`lumotlarni himoya qilish bo`yicha milliy qonunchilik mavjud, bu 66% tashkil etadi. Shuningdek shtatlarning 10 foizi shaxsiy ma`lumotlarni himoya qilish va xavfsizligini ta`minlash bo`yicha qonun ishlab chiqayotgan bo`lsa, qolgan 19 foizida bunday qonunlar hali ham ishlab chiqilmagan hukumatlardir. O`zbekistonda ham ma`lumotlarni himoya qilish bo`yicha “Shaxsga doir ma`lumotlar to`g`risida” qonun ishlab chiqilgan. Unda shaxsga doir ma`lumotlarni o`zgartirish va to`ldirish, shaxsga doir ma`lumotlardan foydalanish kabilar berilgan.

Ushbu qonunning yaratilishi nimani anglatadi?

Ushbu qonunning 27 prem 1 moddasida shaxsga doir ma`lumotlarning himoyasi haqida berilgan. Unga ko`ra Davlat shaxsga doir bo`lgan ma`lumotlarni

⁴ <https://uzbekistanlawblog.com/data-protection-in-uzbekistan-challenges-and-opportunities/>

himoya qiladi. Bundan tashqari O`zbekiston Respublikasi fuqarolarining shaxsiy ma`lumotlarini O`zbekistonda saqlashi shart. Ya`ni Facebook, Telegram, Google va boshqalar O`zbekiston fuqarolarining shaxsiy ma`lumotlarini O`zbekistonda bo`lgan serverlarda saqlashi kerak edi. Chunki fuqarolarning shaxsiy ma`lumotlari boshqa shaxslarning ya`ni boshqa davlatdagi shaxslarning, boshqa davlat hududida joylashgan. Bu qonun kuchga kirganida ko`pchilik bu bizning so`z erkinligimizni ma`lum darajada cheklaydi deb aytishgan. Ammo bu qonun fuqarolarning hech qanday so`z erkinligini buzmaydi, balki, ularning huquqlarini himoya qilish uchun qabul qilingan deb o`ylayman. Chunki davlat o`z fuqarolarini himoya qilishi, shuningdek ularning sha`ni qadr-qimmatini va uning huquqlarini himoya qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni ayta olamanki, O`zbekistonning shaxsga doir ma`lumotlar to`g`risidagi qonuni shaxsiy ma`lumotlarning himoyasiga bag`ishlangan alohida qonun deya ayta olaman. Uning 27-1 moddasiga asosan ijtimoiy tarmoqlar va internet shaxsiy malumotlarimizni O`zbekistonda serverlari mavjud bo`lishi kerakligi aytilgan. Men shu fikrga mutlaqo qo`shilaman. Chunki shaxsiy ma`lumotlarimiz chet davlat hududida saqlanishi bu bizning maxfiylik tizimizga mos deb o`ylamayman. Shu sababli ijtimoiy tarmoqlarning serverlari davlatimizda bo`lishi kerak. Bu nimadan dalolat beradi O`zbekiston ham o`z hududida ma`lumot bazalari mavjudligidan dalolat beradi. Bundan tashqari Xitoyda o`zlarining ijtimoiy tarmoqlari mavjud. U fuqarolarning shaxsiy ma`lumotlarini chet davlat hududida saqlanishini xohlamaydi. Shu sababli ijtimoiy tarmoq ochishgan. O`ylashimcha O`zbekiston ham Xitoy singari o`zining ijtimoiy tarmog`ini ochishi kerak. Shunda fuqarolarning shaxsiy ma`lumotlari maxfiy va ishonchli saqlanadi deb o`ylayman. Bundan tashqari yuqorida ijtimoiy tarmoqlarni ularash haqida aytib o`ttik. Unda ikki bosqichli tekshiruv bilan amalgalash oshirishni yoqib qo`yish kerak yoki akkauntni ularash uchun shaxsiy ma`lumotlarimizni to`liq to`ldirib, keyin ularash kerak. Ikki bosqichli tekshiruvda faqat qo`ygan parolimiz esimizda qolishi kerak. Shu sababli mening fikrimcha ushbu raqam kimning nomiga olingan bo`lsa, u ma`lumotlarini kiritganidan so`ng, akkaunt ulanishi kerak.

Foydalilanilgan adabiyotlar

Maxfiylikni oshirish va tezroq yuklash uchun Gmail -da rasmni avtomatik yuklashni qanday o'chirish mumkin

<https://www.tazkranet.com/uz/how-to-turn-off-gmails-automatic-image-loading-for-increased-privacy-and-speedier-loading/>

O'RQ-547-coh 02.07.2019. Shaxsga doir ma`lumotlar to`g`risida

<https://lex.uz/docs/-4396419?ONDATE2=21.04.2021&action=compare>

<https://uzbekistanlawblog.com/data-protection-in-uzbekistan-challenges-and-opportunities/>